

1. Quyidagi javoblar ichidan noto‘g‘ri fikrni toping.

- A) Antik davr bosqichida geografiya fani vujudga keldi va «Geografiya» nomli kitoblar yozildi.
- B) O‘rta asrlar bosqichida geodeziya, kartografiya, gidrologiya, iqlimshunoslik fanlari shakllandi.
- C) Buyuk geografik kashfiyotlar bosqichida kartografik proyeksiyalar va relyefni tasvirlashning yangi usullari ixtiro qilindi.
- D) Ilmiy geografik ishlar bosqichida fanda yangi nazariya va gipotezalar yaratildi.

2. Xaritalarda aholining irqiy va diniy mansubligi, issiqlik mintaqalari, tabiat zonalari qanday belgilar yordamida tasvirlanadi?

- A) strelkalar
- B) nuqtalar
- C) ranglar
- D) harflar

3. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zni qo‘ying.
«... – har xil bo‘lganligidan geografik mintaqada zonalar vujudga keladi».

- A) Quyosh nuri
- B) havo harorati
- C) yog‘in miqdori
- D) Quyosh balandligi

4. Matnni o’qing.

“Materik foydali qazilmalarga boy. Rudali foydali qazilmalar magmatik va metamorfik tog‘ jinslari tarkibida ko‘p uchraydi. Oltin, mis, volfram, uran, qalay, simob va boshqa rangli metallar hamda qimmatbaho toshlarning hosil bo‘lishi magmatik tog‘ jinslarida ko‘p uchraydi”.

Matnda berilgan ma’lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.

- A) Janubiy Amerika
- B) Yevrosiyo
- C) Afrika
- D) Shimoliy Amerika

5. Bofort dengizi qaysi okeanda joylashgan?

- A) Tinch
- B) Atlantika
- C) Hind
- D) Shimoliy Muz

6. Matnni o’qing.

Ushbu okean tubi relyefi juda murakkab tuzilgan. Bu yerda dengiz sayozligi kam, 1,7 % maydonni egallaydi. Materik yonbag‘irlari tik zinapoyalar hosil qiladi. Okean tubi 62,6 %

maydonni egallagan. **Matnda berilgan ma’lumotlar qaysi okeanga oid ekanligini aniqlang.**

- A) Atlantika
- B) Tinch
- C) Hind
- D) Shimoliy Muz

7. Janubiy Amerika materigidagi qaysi milliy bog‘ UNESCO ro‘yxatiga kiritilgan va xalqaro maqom berilgan?

- A) Chako
- B) Makarena
- C) Tapajos
- D) Jau

8. Matnni o’qing.

“Materik hududi qadimdan aholi yashab kelgan sivilizatsiya markazlaridan hisoblanadi. Yashash uchun qulay hududlar o‘zlashtirib bo‘lindi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘rmonlar, cho‘llar va tog‘li zonalarini o‘zlashtirishga kirishildi. Natijada, antropogen tabiat kompleksi egallagan maydonlar tobora kengayib bormoqda”. **Matnda berilgan ma’lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.**

- A) Yevrosiyo
- B) Shimoliy Amerika
- C) Janubiy Amerika
- D) Afrika

9. Grenlandiya va Islandiya orollari orasida qaysi bo‘g‘iz joylashgan?

- A) Devis
- B) Lankaster
- C) Daniya
- D) Mak-Klur

10. Avstraliya materigiga oid to‘g‘ri ma’lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Chalacho‘l va cho‘l zonalarining asosiy o‘simgili qora shuvoq, kaktus, yukka qo‘ng‘ir-jigarrang tuproqlarda o‘sadi. Sudralib yuruvchilar va kemiruvchilar, qalqondorlar yashaydi.
- B) Subtropik iqlim mintaqasidagi tabiat zonalari hududiy xususiyatga ega. Materikning g‘arbiy qismida qattiq bargli o‘rmonlar va butalar, janubi-sharqida evkalipt o‘rmonlari, undan janubda doimiy yashil dub (eman)lar o‘sadi.
- C) Mo‘tadil iqlim mintaqasi materikning eng katta qismini egallab olgan. Mo‘tadil mintaqaga iqlim sharoitining shakllanishida Atlantika okeanidan keladigan dengiz havo massasi, materik ichkarisida tarkib topgan kontinental

havo massasi va Tinch okeandan keladigan musson havosi muhim rol o'ynaydi.
D) Subekvatorial iqlim mintaqasi ekvatorial iqlim mintaqasini shimol va janubdan o'rabi turadi. Chegaralari ekvatordan shimol va janub tomonlarga $15 - 20^{\circ}$ kengliklarga cho'zilib borgan.

- 11. Chingiztob', Torbog'atoy va Jung'oriya Olatovi tizmalari Qozog'istonning qaysi qismida joylashgan?**
A) shimoliy
B) g'arbiy
C) sharqi
D) janubiy

12. Matnni o'qing.

"Okrugda o'rtacha yillik yog'in miqdori 80 — 100 mm. Bunga asosiy sabab, okeanlardan uzoqda, yerusti tekis, yozgi haroratining yuqoriligidir. Yog'in, asosan, bahorga to'g'ri keladi. Qor qoplami uncha qalin emas. Lekin mumkin bo'lgan bug'lanishning yillik miqdori 2000 mm ga yetadi".

Matndagi ma'lumotlar qaysi okrugga tegishli ekanligini toping.

- A) Quyi Amudaryo
B) Ustyurt
C) Qizilqum
D) Orol

13. Surxondaryo davlat qo'riqxonasi qaysi tog'tizmasining yonbag'rida joylashgan?

- A) Ko'hitang
B) Bobotog'
C) Hisor
D) Boysuntog'

14. "Okrugning markaziy qismidagi qumli yerlarda kaltakesak, yumronqoziq, qo'shoyoq, ilonlar hamda har xil hasharoqlar yashaydi. To'qaylarida chiyabo'ri, qirg'ovul, g'oz va o'rdak uchraydi. Adirlarda toshbaqa, ilon, sichqon, yumronqoziq uchrasha, tog'larida bo'rsiq, bo'ri, tulki kabi hayvonlar yashaydi. Suv havzalarida zog'orabaliq, laqqabaliq, cho'rtanbaliq, daryolarning tog'li qismida qorabaliq (oybaliq) uchraydi". Ushbu ta'rif mamlakatimizdagi qaysi tabiiy geografik okrugga tegishli?

- A) Farg'ona
B) Chirchiq-Ohangaron
C) O'rta Zarafshon
D) Qashqadaryo

15. Qizilqum tabiiy geografik okrugiga oid ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Okrugda may oyidan boshlab shimoli-g'arbdan, g'arbdan esuvchi havo massasi ta'sirida havo ilib, yog'ingarchilik boshlanadi. Okrugga yiliga o'rtacha 80—100 mm atrofida yog'in yog'ib, uning 45 foizi bahorga, 10—11 foizi yozga to'g'ri keladi.
B) Okrugda yog'in kam tushadi, uning o'rtacha yillik miqdori 100—120 mm. Yog'inni, asosan, g'arbiy va shimoli-g'arbiy havo massalari olib keladi. Eng ko'p yog'in bahorga, eng kami qishga to'g'ri keladi. Qor juda kam yog'ib, izg'irinli shamollar uni uchirib ketishi natijasida yer yuzasi muzlaydi.
C) Okrugda o'rtacha yillik yog'in miqdori 80—100 mm. Bunga asosiy sabab, okeanlardan uzoqda, yerusti tekis, yozgi haroratining yuqoriligidir. Yog'in, asosan, bahorga to'g'ri keladi. Qor qoplami uncha qalin emas. Lekin mumkin bo'lgan bug'lanish yog'inga nisbatan 20 marta ko'p bo'lib, yillik miqdori 2000 mm ga yetadi.
D) Okrugda yog'in juda kam tushib, yillik yog'in miqdori 75—100 mm atrofida bo'ladi. Yog'inning asosiy qismi bahorda (yillik yog'inning 48 foizi) va qishda (30 foiz) tushadi. Lekin mumkin bo'lgan bug'lanish 1000—1500 mm ga yetadi.

16. Quyidagi shaharlarning qaysi birida gilmoya negizida bezakbop oq sement ishlab chiqariladi?

- A) Ohangaron
B) Quvasoy
C) Navoiy
D) Angren

17. "Iqtisodiy rayon uchta davlat chegaralanadi. Maydoni qariyb O'zbekiston maydonining 1/10 qismiga teng bo'lib, bu hududda mamlakat aholisining har yettitasidan biri yashaydi". Ushbu ta'rif mamlakatimizdagi qaysi iqtisodiy rayonga tegishli?

- A) Janubiy
B) Quyi Amudaryo
C) Mirzacho'l
D) Zarafshon

18. YIM hajmiga ko'ra qaysi davlat jahonda birinchi o'rinni egallaydi?

- A) Yaponiya
B) Xitoy
C) AQSH
D) Hindiston

19. Qaysi davlatlar jahonda dengiz suvi qalqishidan elektr energiyasini ishlab chiqarish bo'yicha yetakchilik qiladi?

- A) Xitoy, Niderlandiya

- B) Germaniya, Daniya
- C) Fransiya, Rossiya
- D) Rossiya, Italiya

20. “Kemalarni ishlab chiqarish bo‘yicha mamlakat jahonda birinchi o‘rinda turadi. Shuningdek, po‘lat, cho‘yan, rux, qo‘rg‘oshinni eritish, avtomobillar va ularning ehtiyyot qismlari, polimer mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha jahonning birinchi beshtaligiga kiradi”. Ushbu ta’rif qaysi davlatga tegishli?

- A) Yaponiya
- B) Xitoy
- C) AQSH
- D) Koreya Respublikasi

21. Afrikaning qaysi subregioni ko‘p asrlik tarixga egaligi sababli, mintqa davlatlari iqtisodiyoti uchun an‘anaviy hisoblangan sug‘orma dehqonchilik, ko‘chmanchi chorvachilik, hunarmandchilik kabi tarmoqlar o‘ziga xos an‘analarga egaligi bilan ajralib turadi?

- A) Shimoliy Afrika
- B) Janubiy Afrika
- C) G‘arbiy Afrika
- D) Sharqiy Afrika

22. Matnni o‘qing.

“Yoqilg‘i-energetika resurslaridan u ko‘mir, neft, gaz va yonuvchi slanesga boy. Ayniqsa toshko‘mirning zaxiralari katta. Turli qora va rangli metall rudalari bilan ham yaxshi ta’milangan. Ko‘p metallarni qazib olish va eritish bo‘yicha jahon bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallaydi”.

Matndagi ma‘lumotlar qaysi mamlakatga tegishli ekanligini toping.

- A) Rossiya
- B) Hindiston
- C) Xitoy
- D) AQSH

23. Matnni o‘qing.

“Subregion mamlakatlarda tug‘ilish va tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichlari juda past, lekin tashqi migratsiya balansi yuqori musbat ko‘rsatkichlarga ega bo‘lganligi bois, subregion davlatlarda aholi o‘sishi davom etmoqda. Yevropa qit’asi subregionlari ichida aholisi eng zinch joylashgan hudud hisoblanadi. Urbanizatsiya ko‘rsatkichlari barcha davatlarda yuqori ko‘rsatkichga ega”. **Matnda berilgan ma‘lumotlar qaysi subregionga oid ekanligini toping.**

- A) Sharqiy Yevropa

- B) G‘arbiy Yevropa
- C) Shimoliy Yevropa
- D) Janubiy Yevropa

24. Turkmaniston qishloq xo‘jaligiga oid to‘g‘ri ma‘lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari qatoriga bug‘doy, paxta, kartoshka, sabzavot, kungaboqar, tamaki kiradi. Dehqonchilik vodiylarda rivojlangan. Tog‘lari serhosil yaylovlarga boy bo‘lganligi tufayli respublikada chorvachilikning qo‘ychilik, echkichilik, qoramolchilik, yilqichilik singari tarmoqlari yaxshi rivojlangan.

B) Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari donchilik, paxtachilik, uzumchilik, qorako‘lchilik, yilqichilik hisoblanadi. Axalteki zotli otlari butun dunyoga mashhur bo‘lib, hattoki davlat gerbida ham axalteki oti tasvirlangan.

C) Dehqonchilikning asosiy tarmoqlari donchilik, paxtachilik, bog‘dorchilik va uzumchilik hisoblanadi. Paxta va turli mevalar respublikaning muhim eksportbop mahsulotlari hisoblanadi. Sug‘orma dehqonchiligi tog‘ oralig‘idagi vodiylarida yaxshi rivojlangan. Tog‘-yaylov chorvachiligi qoramolchilik va qo‘ychilikka ixtisoslashgan.

D) Dehqonchilikning bosh tarmog‘i donchilik. U, ayniqsa shimoliy viloyatlaridagi lalmi yerlarda yaxshi rivojlangan. Janubiy viloyatlarda dehqonchilik sug‘orish yordamida rivojlantirilib, bu yerda uning asosiy tarmoqlari sabzavotchilik, sholichilik, polizchilik hisoblanadi.

25. Bevosita inson ta’siriga va xo‘jalikdagi faoliyatiga duchor bo‘lmagan landshaftlar nima deyiladi?

- A) shartli o‘zgartirilmagan
- B) kuchsiz o‘zgartirilgan
- C) kuchli o‘zgartirilgan
- D) madaniy landshaftlar

26. Qaysi qit’ada o‘lim koeffitsiyenti eng yuqori ko‘rsatkichga ega?

- A) Osiyo
- B) Amerika
- C) Afrika
- D) Yevropa

27. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligi demografik o‘tishning nechanchi bosqichini boshdan kechirmoqda?

- A) birinchi
- B) ikkinchi
- C) uchinchi
- D) to‘rtinchi

28. "Shahardan Andijon, Namangan va Toshkent tomon avtomobil yo'llari ketgan. Shahar yonida Norin daryosiga GES qurilgan. Shaharda yirik paxta tozalash hamda yog' zavodlari faoliyat ko'rsatmoqda". Ushbu ta'rif qaysi shaharga tegishli?


- A) Chust
- B) Uchqo'rg'on
- C) Asaka
- D) Pop

29. Ushbu yozuvlsiz xaritada 1 raqami bilan qaysi qo'litiq tasvirlangan?



- A) Karpentariya
- B) Torres
- C) Katta Avstraliya
- D) Kuk

30. Antarktidaning yozuvlsiz xaritasida Xalli va Duymon-d'Yurvil ilmiy stansiyalari qaysi raqamlar bilan tasvirlangan?




- A) 2, 3
- B) 2, 4
- C) 1, 3
- D) 1, 4

31. O'rta Osiyoning yozuvlsiz xaritasida 1 va 2 raqamlar bilan Turon tabiiy geografik kichik o'lkasining qaysi tabiiy geografik rayonlari tasvirlangan?



- A) Kaspiybo'yi tekisligi va Qizilqum
- B) Janubiy yosh tog'lar va Qoraqum
- C) Kaspiybo'yi tekisligi va Janubiy Tyanshan tog'lari
- D) Qoraqum va Qizilqum

32. Ushbu yozuvlsiz xaritada Bo'kantov va Qozoqtov tog'lari qaysi raqamlar bilan tasvirlangan?



- A) 2, 3
- B) 1, 4
- C) 1, 3
- D) 2, 4

33. Okeanlar va ularga tegishli dengizlar mos ravishda to'g'ri berilgan javobni toping.

| No | Okeanlar nomi | Variantlar | Dengizlar nomi |
|----|---------------|------------|----------------|
| 1 | Tinch | a | Hamdo'stlik |
| 2 | Atlantika | b | Skotia |

| | | | |
|---|----------|---|--------|
| 3 | Hind | c | Koro |
| 4 | Shimoliy | d | Bofort |

- A) 1-b, 2-c, 3-a, 4-d
 B) 1-c, 2-b, 3-a, 4-d
 C) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c
 D) 1-c, 2-d, 3-c, 4-d

34. O‘zbekistondagi volfram konlari va ularning joylashgan o‘rnini mos ravishda to‘g‘ri keltirilgan javobni toping.

| Nº | Nomi | Variantlar | Joylashgan o‘rni |
|----|-----------|------------|------------------|
| 1 | Sariqtov | a | Toshkent |
| 2 | Hasantepa | b | Navoiy |
| 3 | Sargardon | c | Qashqadaryo |


- A) 1-c, 2-b, 3-a
 B) 1-a, 2-c, 3-b
 C) 1-b, 2-c, 3-a
 D) 1-c, 2-a, 3-b

35. Janubiy tropik chizig‘i kesib o‘tgan davlatlar jadvalida to‘g‘ri berilgan qatorlarni toping.

| Nº | Davlatlar |
|----|-----------|
| 1 | Urugvay |
| 2 | Argentina |
| 3 | Zimbabwe |
| 4 | Mozambik |
| 5 | Angola |
| 6 | Botswana |

- A) 1, 3, 6
 B) 2, 4, 5
 C) 2, 4, 6
 D) 1, 3, 5

36. Quyidagi chizmada gorizontallar har 200 metrdan o‘tkazilgan bo‘lsa, C nuqtaning mutlaq balandligini toping.




- A) 1050 m
 B) 1150 m
 C) 1350 m
 D) 1250 m

37. Samarqand shahridan 90° azimutda joylashgan shahar orasidagi farq 2 soatni tashkil qilsa, u qaysi soat mintaqasida joylashgan?

- A) 3-soat mintaqasi
 B) 7-soat mintaqasi
 C) 2-soat mintaqasi
 D) 6-soat mintaqasi

38. Quyidagi chizmadan foydalanib, havo haroratining sutkalik amplitudasini aniqlang.



- A) 14 °C
 B) 12 °C
 C) 10 °C
 D) 16 °C

39. Nurotadagi meteorologik stansiyada oylar bo‘yicha yog‘in miqdori quyidagicha: Yanvar – 32 mm, fevral – 27 mm, mart – 39 mm, aprel – 36 mm, may – 16 mm, iyun – 4 mm, iyul – 1 mm, avgust – 1 mm, sentabr – 2 mm, oktabr – 5 mm, noyabr – 16 mm, dekabr – 28 mm. Ushbu ma’lumotlardan foydalanib Nurotadagi yillik yog‘in miqdorini toping.

- A) 207 mm
 B) 216 mm
 C) 225 mm
 D) 233 mm

40. “O‘rta Yevropaning sharqiy qismida joylashgan, yoysimon shakldagi tog‘ sistemasidan iborat bo‘lib, tabiiy xususiyatlariga ko‘ra uch qismga bo‘linadi. Uzunligi 1 500 km, o‘rtacha balandligi 800 – 1 200 m. Ushbu ta’rif qaysi tog‘ tizmasiga tegishli?

- A) Alp

- B) Pireney
- C) Karpat
- D) Skandinaviya

41. Quyidagi diagrammalarda berilgan ko‘rsatkichlar qaysi viloyatga mos keladi?



- A) Andijon
- B) Sirdaryo
- C) Xorazm
- D) Farg‘ona

42. “Sanoati hozirgi vaqtda, asosan, tog‘-kon tarmog‘iga ixtisoslashgan. Eng muhim sanoat mahsuloti oltin hisoblanadi va u mamlakat

eksportining eng katta qismini tashkil etadi. Sobiq Ittifoq davlatlari orasida oltin qazib olish hajmi bo‘yicha 3-o‘rinda turadi”. Ushbu ta’rif qaysi davlatga tegishli?

- A) O‘zbekiston
- B) Rossiya
- C) Qирг‘изистон
- D) Ukraina

43. Eron Islom Respublikasining aholisi 2018-yil holatiga ko‘ra 81,6 mln kishini, aholi zichligi 49,5 kishi/km² ni tashkil qildi. Eron Islom Respublikasining maydonini toping.

- A) 1 655,5 ming km²
- B) 1 644,7 ming km²
- C) 1 651,2 ming km²
- D) 1 648,4 ming km²

44. Qashqadaryo viloyati aholisining umumiy soni 2021-yil holatiga ko‘ra 3 335,4 ming kishini, urbanizatsiya darajasi 42,9 foizni tashkil qildi. Qashqadaryo viloyatining shahar aholi sonini toping.

- A) 1 470 344 kishi
- B) 1 430 886 kishi
- C) 1 388 552 kishi
- D) 1 512 119 kishi

45. Geosiyosat fani, asosan, necha xil ilmiy yondashuv ta’sirida rivojlangan?

- A) 2
- B) 3
- C) 4
- D) 5